

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MA'MURIY NAZORAT FAOLIYATI

Ibragimov Shuhrat Atxamovich
Kriminologiya tadqiqot instituti
ilmiy xodim-tadqiqotchisi, podpolkovnik
Phone: +998 99-850-86-03

Annotatsiya: ushbu maqolada ma'muriy nazorat tushunchasi, uning maqsadi, huquqiy asosi hamda amalga oshirish usullari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, profilaktika inspektorlarining ushbu sohadagi o'рни va ularning faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ma'muriy nazorat faoliyati, jamoat xavfsizligi, ijtimoiy xavfli shaxslar, huquqiy targ'ibot, reydlar o'tkazish.

Аннотация: В настоящей статье подробно анализируются понятие административного надзора, его цели, правовые основы и методы осуществления. Также рассматривается роль инспекторов по профилактике в данной сфере и приводятся предложения по совершенствованию их деятельности.

Ключевые слова: административно-контрольная деятельность, общественная безопасность, социально опасные лица, правовая пропаганда, проведение рейдов.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the concept of administrative supervision, its purpose, legal basis, and methods of implementation. It also examines the role of prevention inspectors in this field and offers recommendations for improving their activities.

Keywords: administrative and control activities, public safety, socially dangerous persons, legal advocacy, conducting raids.

KIRISH. Zamonaviy jamiyatda huquq-tartibotni saqlash va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida turli davlat organlari tomonidan ma'muriy

nazorat tizimi joriy etilgan. Ushbu tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida profilaktika inspektorlari faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qarorlar huquqni muhofaza qilish organlarining samarali faoliyat yuritishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida" gi qarorlari profilaktika inspektorlarining faoliyatini yanada samarali amalga oshirishga zamin yaratadi. Ushbu qarorlar asosida ma’muriy nazorat faoliyati takomillashtirilib, huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yangi mexanizmlar joriy etilmoqda.

Ma’muriy nazorat – bu davlat organlari tomonidan fuqarolarning qonunchilik me’yorlariga rioya etishini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan nazorat faoliyatidir. Mazkur jarayonda ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari muhim rol o‘ynaydi, chunki aynan ular bevosita mahallalarda ishlaydi va fuqarolar bilan doimiy muloqotda bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Zamonaviy jamiyatda huquq-tartibotni saqlash va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida turli davlat organlari tomonidan ma’muriy nazorat tizimi joriy etilgan. Ushbu tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida profilaktika inspektorlari faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’muriy nazorat – bu davlat organlari tomonidan fuqarolarning qonunchilik me’yorlariga rioya etishini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan nazorat faoliyatidir. Mazkur jarayonda ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari muhim rol o‘ynaydi, chunki aynan ular bevosita mahallalarda ishlaydi va fuqarolar bilan doimiy muloqotda bo‘ladi. Profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshiriladigan ma’muriy nazorat fuqarolarni huquqbuzarlikdan qaytarish, qonun ustuvorligini ta’minlash hamda ijtimoiy xavfsizlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonning samaradorligi

davlatning huquqiy siyosati, qonunchilik bazasi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatiga bevosita bog‘liqdir. Profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshiriladigan ma‘muriy nazorat fuqarolarni huquqbuzarlikdan qaytarish, qonun ustuvorligini ta‘minlash hamda ijtimoiy xavfsizlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonning samaradorligi davlatning huquqiy siyosati, qonunchilik bazasi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatiga bevosita bog‘liqdir.

Profilaktika inspektori tomonidan amalga oshiriladigan ma‘muriy nazorat faoliyati jamiyatda huquqiy tartibni mustahkamlash va jinoyatchilikning oldini olishning muhim omillaridan biridir. Profilaktika inspektorining ma‘muriy nazorat faoliyati huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta‘minlash va fuqarolarning huquqiy xabardorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu faoliyat quyidagi asosiy jihatlarga ega:

- Huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktik tadbirlar tashkil etish.
- Ijtimoiy xavfli shaxslarni nazorat qilish.
- Jamoat xavfsizligini ta‘minlashda ishtirok etish.
- Huquqiy targ‘ibot va tushuntirish ishlarini olib borish.

Ma‘muriy nazoratning asosiy yo‘nalishlari Profilaktika inspektorining ma‘muriy nazorat faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

1. Huquqbuzarliklarning oldini olish
 - Potensial xavf tug‘diruvchi shaxslarni nazorat qilish.
 - Mahallalarda reydlar o‘tkazish va xavfsizlik choralari ko‘rish.
 - Fuqarolar bilan profilaktik suhbatlar tashkil etish.
2. Jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarni nazorat qilish
 - Oldin jinoyat sodir etgan va sudlangan shaxslarni monitoring qilish.
 - Probatsiya xizmatlari bilan hamkorlikda nazoratni amalga oshirish.
 - Rehabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini kuzatib borish.
3. Jamoat xavfsizligini ta‘minlash
 - Ommaviy tadbirlar vaqtida tartibni saqlash.
 - Ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda xavfsizlik choralari ko‘rish.
 - Mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

4. Fuqarolar bilan ishlash va huquqiy targ‘ibot

- Huquqbuzarliklarni kamaytirish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borish.
- Fuqarolarni huquqiy savodxonligini oshirish bo‘yicha seminar va uchrashuvlar tashkil etish.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bilamizki, O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlashda profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi tizimlari muhim rol o‘ynaydi. Bu tizimlar, bir tomondan, jinoiy jinoyatchilikning oldini olish, fuqarolarni himoya qilish va jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda, ikkinchi tomondan esa, yurtning tinchligini, barqarorligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. “El-yurt tayanchi” deganda, biz ko‘proq xalqning xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan davlat va jamiyat mexanizmlarini anglaymiz. Bu maqolada profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi tizimlarining vazifalari, ahamiyati va o‘zaro o‘rni haqida so‘z yuritamiz. Jamiyatni himoya qilish, uning farovonligini ta‘minlash uchun barcha ijtimoiy tizimlarning birgalikdagi faoliyati tushuniladi. Profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi o‘rtasidagi yaqin hamkorlik bu maqsadga erishishda juda muhimdir. Mahalla rahbarlari ijtimoiy barqarorlikni saqlashda fuqarolar bilan bevosita aloqada bo‘lishadi, profilaktika inspektorlari esa huquqni muhofaza qilish va jinoyatlarning oldini olishda faoliyat yuritadilar. Birinchidan, mahalla tizimi aholining kundalik ehtiyojlariga javob beradi, ijtimoiy muammolarni o‘z vaqtida hal qiladi, ikkinchidan esa, profilaktika inspektorlari jinoyatlarning oldini olish, yoshlarni jinoyatchilikdan asrash, va jamiyatni xavfsiz saqlash uchun ma‘lum profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Mahalla tizimi va profilaktika inspektorlarining hamkorligi jamoat xavfsizligi, qonunbuzarliklarning oldini olish va aholi o‘rtasida ijtimoiy muammolarni hal etish borasida katta ahamiyatga ega.

Ularning vazifalari haqida gapiradigan bo‘lsak, inspektorning bir kunlik faoliyatini ko‘rib chiqishimiz kerak. Profilaktika inspektorlari ish faoliyatini mahalla fuqarolar yig‘inida boshlaydi. Ular huquqiy, ijtimoiy, ma‘naviy tomondan yordamga

muhtoj bo'lgan oilalar bilan alohida ishlashi, har bir oila haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Kim ijtimoiy himoyaga muhtoj, kim muhtoj emas, tahlil qilib boradi. Inspektorlarning har kunlik shaxsiy ish rejasi bor. Fuqarolar xavfsizligi, jinoyatdan xoliligi nazorat qilinadi. Maqsad – aholi kuni tun xavfsiz bo'lishi kerak. Bundan tashqari, ular fuqarolar tomonidan o'qotar qurollar, o'q-dorilar, portlovchi moddalar va portlatish qurilmalarini o'z ixtiyori bilan topshirilishi va ularni qabul qilish bilan bog'liq ishlarni amalga oshiradi. Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari ekin maydonlarini xatlovdan o'tkazish, ularda yil davomida ekiladigan ekin turlari va yetishtiriladigan mahsulot hajmlarini aniqlash bilan ham shug'ullanadi, shu masalalar bo'yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etadi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish va aholi, ayniqsa, yoshlar bandligini ta'minlashga yo'naltirilgan choralarni amalga oshiradi. Do'kon, kafelarda kuzatuv kameralarining o'rnatilishini, voyaga yetmaganlar bevaqt ko'chada, internet klublarida bo'lmasligini nazorat qilib, viktimologik profilaktikani olib boradi[5]. Profilaktika inspektoriga qo'yilgan talab bitta – jinoyatning oldi olinib, mahalla tinch bo'lishi, odamlar xavfsiz yashashi, bugungi hayotidan rozi bo'lishi. Profilaktika inspektorining ma'muriy nazorat faoliyati huquqiy tartibni saqlash va jinoyatchilikni kamaytirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu faoliyat huquqiy asoslar, jamoat bilan hamkorlik va tizimli nazorat orqali samarali amalga oshirilishi lozim. Kelajakda profilaktika inspektorlarining faoliyatini yanada takomillashtirish va ularning huquqiy savodxonligini oshirish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashishning samaradorligi oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, profilaktika inspektorlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va xalq bilan samarali muloqot o'rnatish orqali ularning ish samaradorligini oshirish mumkin.

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, huquqni muhofaza qilish organlari va mahalliy hamjamiyatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ham jinoyatchilikning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, profilaktika inspektorlarining kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularni zamonaviy yondashuvlar va xalqaro tajriba asosida o'qitish, shu jumladan, psixologik tayyorgarlik va muomala

madaniyatini rivojlantirish ham dolzarb masalalardan biridir. Odamlarning huquqiy ongini oshirish, profilaktik tadbirlarni keng targ‘ib qilish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini yanada takomillashtirish lozim. Kelgusida profilaktika inspektorlarining vakolatlarini kengaytirish, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini mustahkamlash hamda zamonaviy huquqiy islohotlar asosida ularning faoliyatini takomillashtirish orqali jamiyatda xavfsizlik va tartibni ta‘minlashning yanada samarali tizimini yaratish mumkin. Shu sababli, davlat va jamiyatning ushbu sohaga e‘tiborini oshirish, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat organlari va tashkilotlari idoraviy qorovullik bo‘linmalarining faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

2. Yusupov M., Islomov B. “Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining huquqiy asoslari”. Toshkent: Adolat, 2021.

3. Rahimov U. “Ma‘muriy huquq va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati”. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022.

4. Rashidov B. "Jinoyatchilikning oldini olishda profilaktika inspektorlarining o‘rni". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.